

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Toshkent viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 2876,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 15,4 ming kishiga yoki 0,5 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1418,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,3 %), qishloq aholisi soni 1458,4 ming kishini (50,7 %) tashkil etdi.


E'tibor bering: 2018 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **15,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **26,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **8,3 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **8,8 mingta nikoh** va **1,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Toshkent viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida)




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Yangiyo'l tumanida 204,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,1 %ni) va Qibray tumanida 196,1 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Ohangaron shahrida 36,7 ming kishi (1,3 %) va Nurafshon shahrida 48,0 ming kishini (1,7 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Parkent tumanida 1,7 %ni, Bo'ka, O'rtachirchiq va Yangiyo'l tumanlarida 1,5 %ni, Chinoz, Yuqorichirchiq tumanlari va Bekobod shahrida 1,4%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Yangiyo'l shahrida 0,6%ni va Zangiota tumanida 0,7 %ni tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 26,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 17,9 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Bo'ka tumanida (18,7 promilledan 21,9 promillega) va Nurafshon (13,0 promilledan 15,0 promillega) shahrida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Ohangaron (20,3 promilledan 18,7 promillega) tumanida, Angren shahrida (19,0 promilledan 18,1 promillega) va Bekobod (20,9 promilledan 20,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Toshkent viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-iyun

	2017yil	2018yil	O'sish sur'ati, %
Toshkent viloyati	25170	26264	104,3
Nurafshon sh.	306	355	116,0
Olmaliq sh.	1150	1140	99,1
Angren sh.	1709	1656	96,9
Bekobod sh.	743	723	97,3
Chirchiq sh.	966	1109	114,8
Ohangaron sh.	287	311	108,4
Yangiyo'l sh.	441	465	105,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	977	1024	104,8
Ohangaron	927	863	93,1
Bekobod	1568	1517	96,7
Bo'stonliq	1240	1338	107,9
Bo'ka	1114	1327	119,1
Quyichirchiq	947	1026	108,3
Zangiota	1709	1805	105,6
Yuqorichirchiq	1191	1313	110,2
Qibray	1640	1677	102,3
Parkent	1454	1584	108,9
Pskent	878	849	96,7
O'rtachirchiq	1443	1430	99,1
Chinoz	1261	1277	101,3
Yangiyo'l	1762	1864	105,8
Toshkent	1457	1611	110,6

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 8,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,8 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ko'paydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 5,7 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Oqqo'rg'on (4,6 promilledan 5,9 promillega), Ohangaron (4,9 promilledan 5,8 promillega) tumanlarida o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Yangiyo'l (8,7 promilledan 7,7 promillega) va Ohangaron (7,9 promilledan 7,3 promillega) shaharlarida, Bekobod(5,0 promilledan 4,5 promillega) va Pskent (5,5 promilledan 5,1 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent viloyati bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-iyun


	2017yil	2018yil	O'sish sur'ati %
Toshkent viloyati	8036	8308	103,4
Nurafshon sh.	148	143	96,6
Olmaliq sh.	491	476	96,9
Angren sh.	562	550	97,9
Bekobod sh.	281	278	98,9
Chirchiq sh.	592	611	103,2
Ohangaron sh.	143	133	93,0
Yangiyo'l sh.	256	228	89,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	232	297	128,0
Ohangaron	222	268	120,7
Bekobod	373	343	92,0
Bo'stonliq	418	431	103,1
Bo'ka	288	298	103,5
Quyichirchiq	300	319	106,3
Zangiota	438	467	106,6
Yuqorichirchiq	379	422	111,3
Qibray	590	576	97,6
Parkent	358	388	108,4
Pskent	263	250	95,1
O'rtachirchiq	421	455	108,1
Chinoz	330	360	109,1
Yangiyo'l	513	510	99,4
Toshkent	438	505	115,3

Demografik holat

2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,2 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,3 %i o'simtalardan, 7,9 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,9 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,6 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 8,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,2 ming nafarni tashkil etib, ularning 52,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 24,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 7,4 %i tug'ma anomaliyalardan, 3,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,2 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 2,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 8,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-iyun

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 18,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,9 ming kishiga (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 17,1 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
18,0 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'l (147,5 %), Ohangaron shaharlarida (141,2 %), Qibray (129,6 %), Bekobod (126,5 %), Pskent va O'rtachirchiq (125,7%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bo'stonliq (149,2%), Bo'ka (140,0 %), Quyichirchiq (135,8 %), tumanlariga va Chirchiq (137,1 %) shahriga to'g'ri kelmoqda.



Toshkent viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik yanvar-iyun



	Tuzilgan nikohlar soni			Nikohdan ajralishlar soni		
	2017 y	2018 y	O'sish sur'ati, %	2017 y	2018 y	O'sish sur'ati, %
Toshkent viloyati	7681	8820	114,8	1760	1922	109,2
Nurafshon sh.	121	134	110,7	39	42	107,7
Olmaliq sh.	404	473	117,1	138	114	82,6
Angren sh.	341	381	111,7	142	78	54,9
Bekobod sh.	269	295	109,7	80	103	128,8
Chirchiq sh.	343	399	116,3	143	196	137,1
Ohangaron sh.	85	120	141,2	37	25	67,6
Yangiyo'l sh.	160	236	147,5	67	50	74,6
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	338	360	106,5	68	67	98,5
Ohangaron	187	222	118,7	49	38	77,6
Bekobod	408	516	126,5	83	97	116,9
Bo'stonliq	377	444	117,8	65	97	149,2
Bo'ka	389	445	114,4	50	70	140,0
Quyichirchiq	309	373	120,7	67	91	135,8
Zangiota	446	551	123,5	77	125	162,3
Yuqorichirchiq	496	493	99,4	96	121	126,0
Qibray	449	582	129,6	130	145	111,5
Parkent	552	458	83,0	68	71	104,4
Pskent	218	274	125,7	34	39	114,7
O'rtachirchiq	479	602	125,7	93	90	96,8
Chinoz	361	448	124,1	70	79	112,9
Yangiyo'l	552	541	98,0	93	100	107,5
Toshkent	397	473	119,1	71	84	118,3

Migratsiya. 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 12,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 2,5 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 3,8 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	10,2	9,7
Ko'chib ketganlar	14,0	12,3
Migratsiya saldosi	-3,8	-2,5

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Zangiota tumanida (minus 0,8 ming kishi), Bo'stonliq va Bekobod tumanlarida (minus 0,3 ming kishi) qayd etildi.